



**TOSHKENT VILOYATINING
CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI**
(2019 yil yanvar-fevral)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2 101,8 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,5 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 243,2 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 17,4 %), kichik tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 1 858,6 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 196,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 1,5 %) tashkil etdi.


**Shahar va tumanlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi
(mlrd. so'm)**


2018 yilning shu davriga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Bekobod shahri, Chinoz tumani, Olmaliq va Ohangaron shaharlarida qayd etildi.

Jami viloyat Chakana savdo aylanmasida
shahar va tumanlarning ulushi, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 17,4 %ga oʻsdi va 243,2 mlrd. soʻmni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 11,6 % ulushiga toʻgʻri keladi.



Kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga koʻra, 1 858,6 mlrd. soʻmni tashkil etib, 2018 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 1,9 %ga oʻsdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 88,4 %ga teng kelmoqda.

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibi, (%)


**2018 yil
yanvar-fevral**



**2019 yil
yanvar-fevral**



**Chakana savdo aylanmasida
yirik korxonalar va kichik tadbirkorlikning ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko`ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub`ektlarining ulushi bo`yicha Nurafshon shahri (99,5 %), Oqqo`rg`on tumani (98,5 %), Bekobod tumani (98,2 %), Quyichirchiq tumani (98,0 %), Ohangaron tumani (96,0 %), Yangiyo`l shahri (96,3 %), Parkent tumani (96,0 %), Piskent tumani (95,6 %), Bo`ka tumani (95,7 %) va Yangiyo`l tumani (94,9 %) yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 11,6 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chinoz tumani (36,3 %), Yuqorichirchiq tumani (21,1 %), Toshkent tumani (23,0 %), O`rtachirchiq tumani (18,5 %), Chirchiq shahri (16,2 %), Ohangaron shahri (19,0 %), Bekobod shahri (26,4 %), Qibray (10,2 %) tumanlarida kuzatilgan.

**Kichik tadbirkorlik va yirik korxonalarining
chakana savdo tovar aylanmasidagi hajmi**

	Yirik korxonalar (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (mln.so`m)	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	243 229,7	117,4	1 858 602,2	101,9
Nurafshon sh.	219,1	-	46 494,9	101,8
Olmalik sh.	30 750,0	170,3	177 713,1	99,9
Angren sh.	7 047,1	103,3	106 191,7	101,2
Bekobod sh.	36 279,1	685,2	101 396,6	100,1
Ohangaron sh.	8 019,0	93,8	34 166,0	101,4
Chirchiq sh.	19 338,0	137,7	100 173,9	100,2
Yangiyo`l sh.	4 367,3	84,2	112 877,4	101,3
<i>tumanlar:</i>				
Oqqo`rg`on	1 314,6	79,5	85 201,4	100,7
Ohangaron	1 265,5	60,3	30 028,1	105,1
Bekobod	941,7	75,0	50 232,2	101,2
Bo`stonliq	6 058,1	68,5	90 088,3	104,3
Bo`ka	2 987,8	81,6	67 052,4	101,3
Quyichirchiq	752,6	115,0	36 867,5	103,3
Zangiota	14 913,0	72,5	238 969,4	103,7
Yuqorichirchiq	15 278,0	56,6	57 139,7	108,6
Qibray	13 398,6	86,3	118 157,9	103,9
Parkent	3 451,6	105,8	82 104,1	101,9
Piskent	2 070,3	81,1	45 513,9	101,7
O`rtachirchiq	6 513,3	68,3	28 632,5	101,8
Chinoz	34 765,8	138,2	60 968,9	100,6
Yangiyo`l	4 978,1	108,7	92 991,9	101,3
Toshkent	28 520,8	124,6	95 640,5	100,1


Hududlarda kichik tadbirkorlik sub`ektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)


2019 yil yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo`yicha aholi jon boshiga 729,8 ming so`mni tashkil qilib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 2,2 %ga ko`paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-fevral oylarida o`tgan yilga nisbatan viloyatning deyarli barcha hududlarida o`shish ko`rsatkichlarini tashkil etib, eng yuqori ko`rsatkilar Yangiyo`l shahri (1 970,5 ming.so`m), Olmaliq shahri (1 624,8 ming. so`m) va Bekobod shahri (1 469,3 ming.so`m) hissasiga to`g`ri keladi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo`yicha eng kam ko`rsatkichlar O`rtachirchiq tumani (241,4 ming.so`m), Ohangaron tumani (334,3 ming.so`m) va Bekobod (332,9 ming so`m) tumanida qayd etilgan. Ushbu ko`rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko`rinish olgan:

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming so`m	O`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	729,8	102,2
Nurafshon sh.	973,2	101,2
Olmaliq sh.	1 624,8	105,1
Angren sh.	613,1	100,0
Bekobod sh.	1 469,3	127,6
Ohangaron sh.	1 149,5	99,1
Chirchiq sh.	770,1	104,1
Yangiyo`l sh.	1 970,5	100,0
tumanlar:		
Oqqo`rg`on	843,2	99,1
Ohangaron	334,3	100,7
Bekobod	332,9	99,2
Bo`stonliq	577,8	100,1
Bo`ka	571,3	98,9
Quyichirchiq	356,6	102,4
Zangiota	1 308,7	100,2
Yuqorichirchiq	548,6	89,6
Qibray	669,8	100,5
Parkent	567,7	100,4
Piskent	482,6	99,5
O`rtachirchiq	241,4	91,8
Chinoz	733,6	110,2
Yangiyo`l	477,7	100,0
Toshkent	703,5	103,8



Jumladan, 2019 yilning yanvar-fevral oylari mobaynida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,8 %ni tashkil etib, 58,2 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 8,9 % oshgan. Bunda jami savdo aylanmasining 73,1 % ulushi kichik tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.


TOSHKENT VILOYATINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

(2019 yil yanvar-fevral)

Yil boshidan viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 929,1 mlrd. so'mni tashkil qildi va 2018 yilning shu davriga nisbatan 3,1 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm yirik korxonalarga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2019 yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko`ra, 523,1 mlrd. so`mni tashkil etib, o`tgan yilning shu davriga nisbatan 7,3 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 56,3 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkichni tuman va shaharlar bilan taqqoslaganda, O`rtachirchiq tumanida (98,0%), Chinoz tumanida (86,5%) va Qibray (85,8%) tumanlarida yuqori bo'lgan.

**Yirik va kichik korxonalarning
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**




Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida kichik tadbirkorlik sub`ektlari aylanmasining ulushi 43,7% ni tashkil etdi, kichik korxonalarning ulushi katta bo`lgan Ohangaron shahar (100,0%), Yangiyo`l shahar (100,0%) va Parkent (100,0%) tumanlarida kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so`m)	O`tgani yilning shu davriga nisbatan, %da
Toshkent viloyati	929,1	96,9	523,1	92,7	406,0	103,1
Nurafshon sh.	5,3	101,2	0,0	-	5,3	100,9
Olmaliq sh.	20,2	98,1	4,2	87,0	16,0	101,5
Angren sh.	5,3	102,4	0,0	31,3	5,3	102,9
Bekobod sh.	9,8	101,2	0,0	6,6	9,7	104,2
Ohangaron sh.	5,4	101,4	0,0	-	5,4	101,4
Chirchiq sh.	18,3	102,0	0,5	41,5	17,8	106,1
Yangiyo`l sh.	18,9	106,2	0,0	0,0	18,9	106,4
<i>tumanlar:</i>	0,7	96,5	0,0	4,7	0,7	99,5
Oqqo`rg`on	5,5	103,6	0,1	-	5,3	101,3
Ohangaron	5,4	88,0	3,2	82,1	2,2	98,5
Bekobod	11,6	92,1	0,1	6,6	11,5	101,5
Bo`stonliq	3,2	102,0	0,0	104,6	3,2	101,9
Bo`ka	3,5	98,6	0,0	40,6	3,5	99,0
Quyichirchiq	106,9	95,9	0,4	4,7	106,5	102,9
Zangiota	20,3	139,9	6,0	1892,5	14,3	100,7
Yuqorichirchiq	224,4	90,1	192,6	88,1	31,8	104,6
Qibray	12,5	104,9	0,0	3,1	12,5	105,1
Parkent	3,9	100,1	0,0	36,1	3,9	101,0
Piskent	256,3	99,9	0,5	233,8	5,1	101,3
O`rtachirchiq	72,0	91,5	1 593,4	117,9	9,7	101,2
Chinoz	18,5	106,3	490,2	107,4	18,4	106,7
Yangiyo`l	101,4	99,7	0,6	3,9	98,9	102,4
Toshkent	929,1	96,9	26,5	30,9	406,0	103,1

Shahar va tumanlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sur'atlari, (%)



Ulgurji tovar aylanmasida o'tgan yilning shu davriga nisbatan eng quyi o'sish sur'ati Bekobod (88,0 %) tumanida qayd etildi.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Tel.:71-230-86-59**